

TALABALARNI HAMKORLIK TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O‘QUV - MA’NAVIY MOSLASHUVCHANLIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI (1 - KURS TALABALARI MISOLIDA)

Omadbek Xursanov

Qo‘qon Universiteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola talaba shaxsida ijtimoiy faollikni shakllantirishda muhim sanaladigan omillar va mezonlarga e‘tibor berish asosida hamkorlik texnologiyasini amaliy jarayonlarda qo‘llash, uning ahamiyati haqida so‘z yuritadi. Shuning barobarida o‘quvchi bu maqoladan «ijtimoiy faoliyat» tushunchasining bugungi kunda talqin qilinayotgan ma‘nolari to‘g‘risida, uning ahamiyati borasidagi qarashlarni; talaba yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish bugun nechog‘lik zaruratga aylanayotgani hamda uning sabablarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy faoliyat, talaba, tashkilotchilik, harakatchanlik, talaba shaxsi.

Respublikamizda Oliy ta‘lim mazmuni va kadrlar tayyorlash jarayonlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning muhim yo‘nalishi sifatida alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan bir birga talabalarning kasbiy faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini to‘liq anglashiga erishish, ijtimoiy talab va majburiyatlarga mas‘uliyatni munosib qaror toptirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Resublikasini yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan “Harakatlar strategiyasi”da ham “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqliy jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” singari ahamiyatli va muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan edi. Bu talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik va psixologik tomondan xususiyatlariga aniqlik kiritish, ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik modeli va auditoriyadan tashqari bo‘lgan holatlarda mashg‘ulotlar tarkibini shakllantirishda interfaol hamda zamonaviy texnologiyalarga murojaat etishni talab qiladi. Shu boisdan ham ishning eng avvalida, ijtimoiy faoliyatning aynan nima va qanday bo‘lishini hamda talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishning omillari va mezonlarini o‘rganib, so‘ngra texnologiyalarni tadbiiq qilish lozim bo‘ladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning sub'yekti, talaba esa ob'yekti deb qaraladi.

Hamkorlikda o'qitish talabaning ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Hamkorlikda o'qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- talabalarning o'rganish jarayonini boyitadi;
- talabalarga ular o'rtasida taqsim qilinib, o'zlashtirilgan kognitiv axborotlar to'plamini beradi;
- talabalarda materialni o'rganishga ishtiyok uyg'otadi;
- talabalarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- talabalarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni oldinga suradi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlarni o'ziga xos turlarga ajratish va ularni amalda qo'llash tizimi mavjud bo'lib, quyida shu mahg'ulotlardan ayrim namunalarni ko'rsatib o'tamiz: S uch pog'onali intervyu; S davra suxbati; S ro'yxat tuzish;

S muammolar yechishni tashkil qilish;

S bir daqiqalik ishlar;

S juftlik izohlari;

S muammoni jo'natish;

S baholash chizig'i;

S kam uchraydigan birlik j amoa kuzatuv;

S ikki qismli kundaliq o'zaro savol yo'llash.

Bu mahg'ulot turlarining ko'pida o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish, ularga rollar va vazifalar taqsim qilish ko'zda tutiladi. Bunda qo'yidagilar hisobga olinadi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonini takomillashtirish va uni talaba shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [1-30]. Hamkorlikda o'qitish mahg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Hamkorlikda o'qitish mahg'ulotlarini tashkil qilishda: o'qituvchi kichiq guruh. O'qituvchi-katta guruh, o'qituvchi-talaba, o'quvchi-talabalar (juftlikda ishlash),

kichik-guruh, guruh va boshqa tashkiliy shakllar qo'llaniladi. Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar guruhi, yakka talaba hamda butun guruh bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir.

"Ijtimoiy faoliyat" tushunchasi bugungi kunda keng va tor ma'noda talqin qilinmoqda. Keng va tor ma'noda ijtimoiy faollik deganda shaxsning ijtimoiylik darajasini aks ettiruvchi sifat tushuniladi, ya'ni uning ijtimoiy butunlik bilan aloqalari, jamiyat manfaatlari yo'lida harakat qilishga tayyorligi, jamoat manfaatlarini qabul qilish chuqurligi, tor ma'noda esa ijtimoiy faollik deganda, shaxsning ma'lum bir ijtimoiy hamjamiyat bilan aloqasini ifodalovchi sifati tushuniladi. Biz "ijtimoiy faoliyat" kategoriyasini ushbu ilmiy maqolada tor ma'noda ko'rib chiqamiz.

Talabaning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish jarayoni bir necha bosqichlarni qamrab oladi:

1-bosqich - propedevtik - tashxisiy. U pedagogik hamrohlikning barcha ishtirokchilari: hamrohlik qiluvchilarning ham, hamrohlik qilinayotganlarning ham moslashuv jarayoniga tayyorlanishi va kirishni anglatadi. Ushbu bosqichning davomiyligi 6-8 hafta. Ushbu bosqichda bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: birinchi kurs o'quv guruhlari o'qituvchilari va tyutorlarini tayyorlash, guruhlar tyutorlari tomonidan bir yillik moslashuv dasturining ishlab chiqilishi, tyutorning talabalarning shaxsiy ishlari bilan tanishishi, o'quv guruhida talabalar bilan tanishishni tashkil etish, har bir guruh ishtirokchisining moslashuv salohiyatini aniqlash, talabalarning ushbu o'quv guruhida muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradigan omillarni aniqlash.

2-bosqich - guruhda konstruktiv o'zaro aloqa tajribasini to'plash asosiy sanaladi. U talabalarning o'qituvchilar va (tyutorlar sifatida ishtirok etuvchi) yuqori kurs talabalari rahbarligida guruh ichidagi munosabatlar tizimida o'zini o'zi amalga oshirishning turli xil variantlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy sinamalar maydonidir. Bosqich 6 oy davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: tyutor tomonidan guruhda konstruktiv o'zaro aloqa usullarining mashq qilinishining tashkil etilishi, guruhda jamoani hosil qilish ustida muntazam ishlash, shaxsning turli guruhdagi shaxsiy xususiyatlari hamda uning kommunikativ salohiyatining namoyon bo'lishini talab qiladigan o'zaro aloqa vaziyatlarini yaratish, guruh ichidagi o'zaro aloqa natijalarini tahlil qilish, keyin algoritm takrorlanishi mumkin: ko'nikma va qobiliyatlarning yangi guruhlarining mashq qilinishini tashkil etish, xususan, talaba ushbu ko'nikmalarni namoyon etishi, o'z faoliyatini va guruhdagi muloqotini tahlil qilishi va qayta anglashi mumkin bo'lgan real vaziyatlarni yaratish.

3-bosqich - talabaning guruhda moslashuvi natijalarini sarhisob qilish, mustaqil va ekspert baholash, ushbu yutuqlarni o'quv faoliyati natijalari bilan bog'lash, auditoriyadan tashqari faoliyatga qo'shilganligi, qiyinchiliklarni aniqlash, talaba va ushbu o'quv guruhi a'zosining keyingi rivojlanishining individual trayektoriyalarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bosqich 4-6 hafta davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi - o'z-o'zini tahlil qilish, mikroguruhlarda tahlil qilish, umumguruhiy tahlil qilish va refleksiylash (qayta anglash), tyutor bilan individual refleksiylaviy uchrashuvlar tashkil etish.

Zamonaviy ta'lim makoni bugun kasbiy jihatdan barkamol, ijtimoiy faol va raqobatbardosh kadrlarga, jamiyatni barqaror, xavfsiz, muvaffaqiyatli ta'minlashga tayyor bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoji bor. Chunki jamiyat insoniyat oldiga yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bunday jarayonlarda jamiyatga zarur mutaxassislar o'z taqdirini belgilash, o'z-o'zini anglash, erkin va mustaqil fikrlash, lo'nda qilib aytganda, ijtimoiy faol shaxs bo'lmog'i darkor. Xuddi shundan kelib chiqib, jamiyat zamonaviy bilimga muhtoj desak bo'ladi. Mustaqil qabul qila oladigan, axloqli, tashabbuskor odamlar tanlangan vaziyatda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, ularning mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish; hamkorlik qilish usullari, harakatchanlik, dinamizm, konstruktivlik, mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissi rivojlangan, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy faol shaxslar bu o'rinda maydon markazida bo'ladilar.

Shu munosabat bilan bugungi kunda shaxsning ijtimoiyligi tobora ortib bormoqda va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talaba shaxsi esa ongli ravishda jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilishga qaratilgan, turfa ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lgan faoliyatlarda o'zini namoyon qiladigan ijtimoiy guruh bo'lganligi sababli ham ular jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi. Ularni kelajakdagi potensial imkoniyatlar ham deb atashimiz mumkin.

Talaba yoshlar ijtimoiy guruh sifatida o'ziga xos sanaladi. Bundan kelib chiqadiki, u yoshlikning barcha xususiyatlarini o'zida jamlaydi, shuningdek, o'ziga xos quyidagi xususiyatlari bilan buni tasdiqlaydi:

- * oliygohda ta'lim bilan bog'liq faoliyat;
- * eng bilimli yoshlar qatlami;
- * bilim xodimlarini to'ldirish uchun zaxira;
- * ziyolilarning ajralmas qismi;
- * ijtimoiy kelib chiqishining heterojenligi;
- * ma'lum bir guruhning o'zini o'zi anglashi;
- * manfaatlar jamiyati va submadaniyat.

Talaba yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish zarur. Bunda albatta, bir tomondan o'zgaruvchan ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda harakat qilish joiz bo'lsa, boshqa tarafdin esa, ushbu ijtimoiy-demografik guruhning o'ziga xos

xususiyatlari, uning ichki tabaqalanishi, jamiyatdagi o'zni va roli, shuningdek, yoshlarning orasidagi ehtiyojlarning mavjud ziddiyatli jihatini hal etish va uni ijtimoiy sub'yekt sifatida hamda ularni amalga oshirish imkoniyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik darkor.

Talabalarning ijtimoiy faolligini shakllantirishda qator omillar ahamiyatli sanaladi. Bu omillar: yoshlarning o'zini o'zi anglash istagi, yoshlarga oid samarali davlat siyosati, shuningdek, yoshlar uchun qiziqarli va nufuzli odamlar hamdir. Ayni shuning barobarida talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda to'sqinlik qiladigan omillarga ham duch kelamiz. Masalan, ishonmaslik, katta yoshdagi guruhlarining muammolariga befarqlik, hokimiyatga ishonchning sustligi, talabalarning o'zlariga nisbatan loqaydlik shular jumlasidandir.

Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishni boshqarish ham ahamiyatlidir. Bunda talabalarning ijtimoiy shakllanishini boshqarish samaradorligining asosiy mezonini talaba yoshlarning faolligi uning barcha faoliyati turlarining yuqori darajasi va manfaatlarining boshqa ijtimoiy sub'yektlar manfaatlariga yuqori darajada muvofiqligidir.

Demak, ushbu e'tiroflardan kelib chiqib, talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda zaruriy omillarga chuqur e'tibor qaratish muhimligiga guvoh bo'lish mumkin. Bu omillar asosida hamkorlik texnologiyasini jarayonda qo'llash samarali bo'ladi. Chunki hamkorlikda o'qitishning g'oyasi o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qib, izlanib, o'rganish hamdir. Aynan talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun mazkur texnologiya asosida o'qitish har bir talabani fundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, ishonchni mustahkamlash, ta'lim jarayonlariga e'tiborli bo'lish natijasida va tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Mustaqil O'zbekistonning asosiy qonunida belgilanganidek, jamiyatning istiqboli, rivojlanish hamda taraqqiyot yo'li huquqiy, demokratik, insonparvar fuqorolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bunday jamiyatni barpo etish esa talabalarda tashkilotchilik, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik, umumiy qilib aytganda, ijtimoiy faollik mahoratini shakllantirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Talabalarni o'quv guruhiga moslashtirishning texnologik xaritasini tuzishda maqsadli blok ishlab chiqiladi.

Maqsadli blokning vazifalari quyidagicha:

- talabaning ta'sir obyekti pozitsiyasidan guruh ichidagi munosabatlar sub'yekti pozitsiyasiga o'tishda pedagogik yondashuv jihatidan boshqarishni amalga oshirish;

- birinchi kurs talabalarini tavsiya etilgan guruhiy faoliyat turlariga kiritish;
- kursdoshlar bilan sheriklik, o'zaro munosabatlarga ko'maklashish va hamrohlik qilish.

Bunda taxminiy tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi, unda talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilishning barcha asosiy g'oyalari aks ettirilgan bo'ladi. Shunday qilib, kiritilgan kuzatish, talabalar faoliyatining natijalari, ularning o'zlashtirish darajalarini baholash usullari yordamida talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish modelini amalga oshirishning muvaffaqiyatligi haqida fikr yurgizishimiz mumkin. Ammo ilmiy asoslangan xulosalar uchun kuzatilgan tendensiyalarni miqdoriy va sifat jihatdan tasdiqlaydigan monitoring ma'lumotlarini taqdim etish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Usarov, J. (2019). Using Teaching Methods for Development Student Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies.
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). The role of folk tales and epic motives in the poetry of Usman Azim. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
4. Jalilova D. Ta'lim jarayonlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. "Sifatli ta'lim - taraqqiyot povdevori" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to'plami // Toshkent, 2023-yil 20-aprel. 282-286-betlar.
5. Utaev, A. Y., & Matyakubova, M.B. (2019). Psychological foundations of speech development. Scientific-practical conference "Modern system cluster in the context of innovations and reforms in education: problems, approaches and prospects».
6. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
7. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o'rni. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 806-808